

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING MAFKURAVIY TARG'IBOTDAGI O'RNI.

Sh.M.Ismatov

Buxoro davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: *Har bir davlat mustaqilligini mustahkamlash yo'lida avvalo o'z milliy g'oyasini yaratadi va uni hayotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqadi. Milliy g'oya – bu jamiyatning kelajakdagi ideali, uning birligi va taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. U xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi, milliy qadriyatlari va umuminsoniy tamoyillar asosida shakllanadi. Mustaqillik g'oyasining mohiyati – bu milliy o'zlikni anglash, o'z madaniyatini asrab-avaylash, Vatanni sevish, uning ravnaqiga hissa qo'shish, adolatli va farovon jamiyat qurishga intilishdir.*

Milliy g'oya o'zbek xalqining boy tarixiy, madaniy va ma'naviy merosini qayta tiklash, davlatni zamonaviy yangi bosqichga olib chiqish, iqtisodiy o'sishga erishish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda xalqaro maydonda munosib o'rin egallash kabi muhim vazifalarni qamrab oladi. Milliy g'oya yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. U yoshlarda o'z yurtiga muhabbat hissini uyg'otadi, milliy urf-odatlarini e'zozlashga, bilim olishga, yangiliklar yaratishga va jamiyatga naf keltirishga undaydi.

Kalit so'zlar: *fuqorolik jamiyati, ma'naviyat, ma'naviy makon, g'oya, huquq, an'ana, ma'rifiy jamiyat, ma'rifatparvar davlat.*

Аннотация: *Каждое государство в целях укрепления своей независимости, прежде всего, создает свою национальную идею и разрабатывает механизмы ее реализации. Национальная идея – это будущий идеал общества, главный фактор, обеспечивающий его единство и развитие. Она формируется на основе исторического опыта народа, культурного наследия, национальных ценностей и общечеловеческих принципов. Суть идеи независимости – осознание национальной идентичности, сохранение своей культуры, любовь к Родине, вклад в ее процветание, стремление к построению справедливого и процветающего общества. Национальная идея охватывает такие важные задачи, как восстановление богатого историко-культурного и духовного наследия узбекского народа, вывод государства на новый современный уровень, достижение экономического роста, развитие гражданского общества и занятие достойного места на международной арене. Национальная идея имеет несравненное значение в воспитании молодежи как полноценных личностей. Она прививает молодым людям чувство любви к своей стране, побуждает их уважать национальные*

традиции, приобретать знания, создавать инновации и приносить пользу обществу.

Ключевые слова: гражданское общество, духовность, духовное пространство, идея, право, традиция, просвещенное общество, просвещенное государство.

Abstract: *Each state, in order to strengthen its independence, first of all creates its own national idea and develops mechanisms for its implementation. The national idea is the future ideal of society, the main factor ensuring its unity and development. It is formed on the basis of the historical experience of the people, cultural heritage, national values and universal principles. The essence of the idea of independence is the awareness of national identity, preservation of one's culture, love for the Motherland, contribution to its prosperity, and the desire to build a just and prosperous society. The national idea encompasses such important tasks as restoring the rich historical, cultural and spiritual heritage of the Uzbek people, bringing the state to a new modern stage, achieving economic growth, developing civil society, and taking a worthy place in the international arena. The national idea is of incomparable importance in educating young people as complete people. It instills in young people a sense of love for their country, encourages them to respect national traditions, acquire knowledge, create innovations, and benefit society.*

Keywords: *grajdanskoe obshchestvo, dukhovnost, dukhovnoe prostranstvo, idea, pravo, tradition, prosveshchennoe obshchestvo, prosveshchennoe gosudarstvo.*

Kirish. Mustaqillik mafkurasi yosh avlodning kamol topishida muhim rol o'ynaydi. Agar yoshlarning ongiga mustaqillik g'oyasi singdirilsa, ular o'z davlatining kelajagi uchun mas'uliyatni his etadi, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga harakat qiladi va jamiyat taraqqiyotiga faol hissa qo'shadi. Bundan tashqari, mustaqillik g'oyasi yoshlarni har xil zararli oqimlar, ekstremistik va terrorchilik kabi xavflardan himoya qiladi. Bu g'oya ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, milliy o'zlikni anglashga yordam beradi va davlat manfaatlari yo'lida xizmat qilishga chorlaydi.

Demak, milliy mustaqillik g'oyani yosh avlodning ongiga singdirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – davlatning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu vazifani amalga oshirishda ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, madaniyat markazlari va oilalar muhim rol o'ynaydi. Yoshlarga mustaqillikning qadrini tushuntirish, ularni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, Vatan tarixi va madaniyati bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish, ularni bilimli va ma'rifatli qilib tarbiyalash – kelajak bunyodkorlarini yetishtirishning muhim shartidir. Zero Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Agar har bir xalq, har bir davlat mustaqil bo'lmasa, boshqalar uning

nafaqat dehqonini, nafaqat ishchisini, hatto shoiru olimini ham, davlat arbobini ham istagancha tahqirlashi, insoniy sha'ni tuproqqa qorishi mumkin ekan.

Biz yaqin tariximizda kechgan ana shunday ayanchli voqealar misolida mustaqilligimizning ahamiyati va mohiyatini, qadr-qimmatini yanada teran anglab yetishimiz, uni har qanday yovuz kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz shart"[1].

Muhokama. Ma'furaviy targ'ibotning ta'sir kuchi ayniqsa shundaki, u inson ongiga bevosita ta'sir etadi. Uning vositalari orqali yaratilgan obrazlar, his-tuyg'ularga yo'naltirilgan ta'sirlar, shaxsning e'tiqodlarini shakllantirishga, uning xatti-harakatlarini yo'naltirishga qodir. Ma'furaviy targ'ibotning mohiyati – muayyan g'oyani yoki tizimni qabul qildirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, ularni ma'lum bir yo'nalishga yo'naltirishdan iboratdir.

Bu uslubning muhim jihati shundaki, u o'z maqsadlariga erishish uchun turli xil psixologik ta'sir mexanizmlaridan foydalanadi[2]. Masalan, takrorlash, hissiy yuklama, ijtimoiy tasdiqlash kabi usullar targ'ibot xabarlarining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, u o'z auditoriyasining xususiyatlarini hisobga oladi, uning ehtiyojlari, qiziqishlari va qo'rquvlariga moslashadi. Shunday qilib, ma'furaviy targ'ibot inson ongiga yo'naltirilgan, uning e'tiqodlarini shakllantirish va xatti-harakatlarini yo'naltirishga qaratilgan kompleks ta'sir usulidir.

Ma'furaviy targ'ibotning shakllari va usullari juda xilma-xildir. U ommaviy axborot vositalarida, ta'lim tizimida, madaniy tadbirlarda, siyosiy kampaniyalarda va boshqa sohalarda namoyon bo'lishi mumkin. Targ'ibotning eng keng tarqalgan usullari orasida stereotiplarni yaratish, ma'lumotlarni tanlab taqdim etish, yolg'on va manipulyatsiyadan foydalanish bor. Ushbu usullar orqali targ'ibotchilar o'z maqsadlariga erishishga, odamlarning fikrini o'zgartirishga va ularni kerakli xatti-harakatlarga undashga harakat qiladilar.

Ammo, ma'furaviy targ'ibotning salbiy oqibatlar ham bor. U jamiyatda adovat, nafrat va nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. U insonning tanqidiy fikrlash qobiliyatini susaytiradi, uni manipulyatsiya va yolg'onga qarshi himoyasiz qiladi. Ma'furaviy targ'ibot, ayniqsa totalitar rejimlar ostida, inson huquqlarining buzilishiga, siyosiy qatag'onlarga va ijtimoiy adolatsizlikka olib kelishi mumkin.

Shuning uchun, ma'furaviy targ'ibotga qarshi kurashish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, mustaqil axborot manbalaridan foydalanish, yolg'on va manipulyatsiyani aniqlash qobiliyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Demokratik jamiyatda erkin fikr, so'z erkinligi va turli nuqtai nazarlarning mavjudligi ma'furaviy targ'ibotning salbiy ta'sirini kamaytirishga yordam beradi.

Targ'ibot vositalaridan oqilona foydalanish, uning ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda, avvalo, targ'ibot mazmunining aniqligi, lo'ndaligi va tushunarligiga e'tibor qaratish lozim[3]. Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni soddalashtirib, omma uchun qabul qilinarli shaklda taqdim eta bilish targ'ibotchining mahoratidan dalolat beradi. Shuningdek, targ'ibotning maqsadli auditoriyasining xususiyatlarini hisobga olish, ularning qiziqishlari, ehtiyojlari va qadriyatlariga mos keladigan ma'lumotlarni yetkazish muhimdir.

Targ'ibot jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, uning samaradorligini oshirishning yana bir omilidir[4]. Televidenie, radio, gazeta va jurnallar bilan bir qatorda, internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar targ'ibotning yangi va ta'sirchan vositalari sifatida maydonga chiqdi. Bugungi kunda, ayniqsa, yoshlar o'rtasida internet va ijtimoiy tarmoqlarning roli oshib borayotganligini inobatga olib, targ'ibotning onlayn platformalardagi faolligini kuchaytirish zarur. Bu borada Sh.M.Mirziyoyev "... aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish"[5] lozimligini alohida ta'kidlaydi.

Targ'ibotning ta'sirchanligini baholash va monitoring qilish uning samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi[6]. Targ'ibot tadbirlari natijalarini muntazam ravishda tahlil qilib, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, kelgusida targ'ibot strategiyasini takomillashtirish imkonini beradi. Bunda, sosiologik so'rovlar, ekspertlar fikri va ommaviy axborot vositalarining monitoringidan foydalanish mumkin.

Fuqarolik jamiyati institutlari – bu jamiyatda demokratik asoslarni mustahkamlashga yo'naltirilgan tashkilotlar va tuzilmalarning yig'indisidir. Tarixiy nuqtai nazardan, ularni ikki turga ajratish mumkin:

- demokratik xususiyatlarga ega bo'lgan an'anaviy ijtimoiy-siyosiy institutlar (davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalari);
- faqat demokratik jamiyatda mavjud bo'ladigan maxsus institutlar, masalan, inson huquqlarining ta'minlanishini nazorat qiluvchi turli nodavlat tashkilotlar.

Fuqarolik jamiyati institutlari mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Kuchli fuqarolik jamiyatining asosiy xususiyati shundaki, demokratik prinsiplarni ilgari surishda fuqarolik institutlarining faol ishtiroki ta'minlanadi, ular jamiyatda jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi hamda davlatning diqqatidan chetda qolgan masalalarni aniqlash va hal etishda davlat idoralari bilan hamkorlik o'rnatadi. M. Qirg'izboyev fuqarolik jamiyati haqida: "Fuqarolik jamiyati - ochiq ijtimoiy tuzilma. Unda so'z erkinligi, shu jumladan, tanqid qilish erkinligi, oshkoralik, har xil axborotlar olish erkinligi, har bir hududga erkin kirish va chiqish huquqi, boshqa mamlakatlar bilan

keng miqyosda, doimiy asosda axborot, ta'lim texnologiyalari almashinuvi, chet davlatlar va jamoat tashkilotlari bilan madaniy va ilmiy hamkorlik, xalqaro huquq prinsiplari va nonnalariga muvofiq xalqaro xorijiy birlashmalar faoliyatiga ko'maklashish ta'minlanadi. U umumiy insonparvarlik tamoyillariga sodiq bo'lib, dunyo miqyosidagi shunday tuzilmalar bilan o'zaro aloqa qilish uchun ochiqdir"[8].

Umuman olganda, fuqarolik jamiyati institutlarining bugungi kundagi faoliyati sharoitida fuqarolarning jamiyatni boshqarishdagi ishtiroki turli sohalarda kengayib bormoqda. Bularga quyidagilar kiradi:

- mehnat jamoalarida (mulk shaklidan qat'iy nazar);
- ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan sohalarda;
- ta'lim muassasalarida;
- mahallalarda;
- mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylanish va ularning kengashlari orqali;
- turli ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar yoki harakatlar;
- jamiyatda mavjud bo'lgan boshqa turli siyosiy bo'lmagan institutlar orqali jamiyatni boshqarish jarayonlarida qatnashish.

Demokratik jamiyatda inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Bu qadriyatning amalda ro'yobga chiqishi, har bir fuqaroning o'z huquqlarini to'liq anglashiga, ulardan oqilona foydalanishiga va boshqalarning huquqlarini hurmat qilishiga bog'liq. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatini shakllantirishda huquqiy savodxonlikni oshirish, inson huquqlari madaniyatini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi[9].

Yangi O'zbekistonda ham fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, qonunchilik bazasi takomillashtirilmoqda, davlat boshqaruvi tizimi liberallashtirilmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlarining roli kuchaytirilmoqda, ularning davlat organlari bilan hamkorligi kengaytirilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytganda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish, uning rolini kuchaytirish, fuqarolik jamiyati institutlarini takomillashtirish davlat va jamiyatning doimiy diqqat markazida bo'lishi lozim. Bu borada yangi tashabbuslar ilgari surish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash, ilg'or xalqaro tajribani o'rganish va amaliyotga tatbiq etish muhimdir. Zero, kuchli fuqarolik jamiyati – barqaror va farovon jamiyatning asosi hisoblanadi.

Qolaversa, fuqarolik jamiyatining taraqqiyotida ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyosdir. OAV xolis va ishonchli axborot tarqatish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqish orqali jamiyatni yanada demokratlashtirishga

xizmat qiladi. Shu bois, OAVning erkinligi va mustaqilligini ta'minlash, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, jurnalistlarning huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Shunday o'lka doim bor bo'lsin". // Uning o'zi. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T: "O'zbekiston". 2017. – B. 344.
2. Milliy g'oya: targ'iboti texnologiyalari va atamalar lug'ati. – T: Akademiya. 2007. – B. 35-36.
3. Milliy g'oya: targ'iboti texnologiyalari va atamalar lug'ati. – T: Akademiya. 2007. – B. 74.
4. проф. И.Эргашев (раҳбар), ф.ф.н., доц М.Артиков, ф.ф.н. Ф.Жўрақулов, ф.ф.н., доц. Ш.Тоғаев, М.Сафаров: Миллий ғоя тарғиботи технологиялари. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2016 150 б.
5. Шавкат Мирзиёев. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. –Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти, 2021. – B. 282.
6. проф. И.Эргашев (раҳбар), ф.ф.н., доц М.Артиков, ф.ф.н. Ф.Жўрақулов, ф.ф.н., доц. Ш.Тоғаев, М.Сафаров: Миллий ғоя тарғиботи технологиялари. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2016 130 б.
7. Quldoshev A. Fuqarolik jamiyati taraqqiyotida O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston, 2020. –148 b.
8. A. Utamuradov, M. Qirg'izboyev, T. Xojiyev. Fuqarolik jamiyati. o'quv qo'llanma. Тошкент – 2018. – B. 18.
9. Quldoshev A. Fuqarolik jamiyati taraqqiyotida O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston, 2020. –148 b.